



Yo'ldoshev Bobur Rustam o'g'li

Jizzax davlat pedagogika universiteti magistranti

URF-ODAT VA MAROSIMLARNINGNING PAYDO BO'LISHI VA XALQ HAYOTIDAGI TUTGAN O'RNI VA AHAMIYATI.

Urf-odatlar qadimdan to bugungi kungacha insoniyat hayotining ajralmas qismi hisoblanadi. Urf-odatlar bayramlardan oldin paydo bo'lgan va ular ham bayramlar kabi turli davrlarda turli sabablar va tasirlar natijasida o'zgarib borgan. Avvalo urf va odat so'zlariga alohida tarif berib olamiz. Urf so'zining bugungi kunda zamonaviy nomi moda hisoblanadi. Bunda qaysidir libos, mashina, qo'shiq va shunga o'xshash boshqa narsalarning hamma tomidan birday foydalanishi va ularga jamiyatning yaxshi munosabatda bo'lishi. Odat esa bir necha marta takrorjangan harakatning doim takrorlanishiga o'rganib qolish va uni takror qilishga moslashib qolishdir. Urf-odat haqida gapirganda albatta marosimlar haqida ham gapirmasdan o'tmaslikning ilojio yo'q. Chunki urf-odatlarining keyingi rivojlanish bosqichi bu an'ana va marosimlar hisoblanadi. An'analar ham ikki guruhga bo'linadi. Ular oilaviy an'analar va milliy an'nalar. Hayotimizda "urf-odat" yoki "udum" va "an'ana" deyilgan bunday narsalar xalqning kundalik hayotida juda katta ahamiyatga ega. Ularning asosiy tasir etuvchi kuchi shundaki, insonlarning, qanday qanday darajada bo'lishidan qat'iy nazar, bazi holatlarda o'ylab ham o'tirmay hamma bilan bir xil harakat qilishiga majbur qiladi. Aytaylik, biror mahalla jamoasi – katta mansabdor, mulkdor yoki oddiy ishchi-hunarmand bo'ladimi har bir kishi azador xonadonga kirib, duoyi fotiha qiladi. Shu tarzda mahalla a'zolari bir-biridan hammaga tanish, hamma uchun odatiy bo'lgan xatti-harakatni kutadi. Agarda, birorta jamoa azosi hamma uchun odatiy bo'lib qolgan harakatlardan boshqa biror harakat qilsa, u jamoa tomonidan qarshilik va norozilikka uchraydi. Aynan shu norozilik ushbu shaxsning shu birgina qilgan harakatini rad qilishdan boshlanib, uni alohida guruhdan, hattoki butun bir jamiyatdan siqib chiqarishgacha olib borishi mumkin. Jamiyatda urf-odatlarining ijtimoiy xulqni mo'tadillashtiruvchilik, ya'ni regulyatorlik rolini inkor qilolmaymiz. Lekin tanganing ikkit omoni bo'lgani singari, ularning ta'siri kuchli bo'lgan jamiyatda shaxs erkinligi muayyan darajada cheklanishi ham bor gap. Odam ba'zan o'zi xohlamagan, ko'ngil amriga zid xatti-harakatni xo'jako'rsinga bo'lsa-da amalga oshiradi. Deylik, ikki mahalladosh garchi bir-birini unchalik yoqtirmasa ham, salom-alikni kanda qilmay, jamoat ko'zicha o'zaro yaxshi munosabatda bo'lib yurganday ko'rinadi. Xalq turmushidagi kundalik tadbirlar ko'pchilikning tajribasi ila takomillashib, pirovardida izchil amaliyot sifatida sekin-asta odamlar talab-ehtiyojini qondira oladigan me'yorga – urf-odat o'laroq tan olingan qonunga aylanadi. Ular takomillashuv jarayonida xalqning ma'naviy-ma'rifiy dunyoqarashi, axloq me'yorlariga, hatto mintaqaviy, tabiiy yashash sharoiti kabi unsurlarga tayanadi. Masalan, Markaziy Osiyo mamlakatlarida mehmon avval bir piyola choy bilan siylanib, keyin osh-ovqat qilinadi. Bu udum (mehmondorchilikni choydan



boshlash, uni uch marotaba qaytarib, birinchi piyolasini mezbonning o‘zi olishi, mehmonga choyning paydar-pay uzatilishi) kabilar, ehtimol, mintaqadagi issiq iqlim sharoitidan kelib chiqqandir. Urf-odatlar jamiyatda barqarorlik talab-ehtiyoji bilan paydo bo‘lib, uni o‘z vaqtida qondiradi. Lekin tarixiy vazifasini o‘tab bo‘lgach, shaxsning yangi ijtimoiy voqelikka muvofiq harakat qilishiga yo‘l bermay qolishi ham mumkin. Bu esa jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy, ma‘naviy-madaniy rivojiga to‘siq bo‘ladi. Ustiga-ustak, urf-odatlar jamiyat hayotiga shu qadar payvandlanib ketganki, ular o‘z o‘rnini yangisiga osonlikcha bo‘shatib bermaydi. Odamlar manfaatiga to‘la xizmat qiladigan yangiliklarni joriy etish mushkulgina emas, hatto ba‘zan imkonsiz bo‘lib qoladi. Yaqindagina ko‘rdik: to‘ylarni davlat hokimiyati, parlamentar alashuvi bilan ham ixchamlashtirib bo‘lmadi. Demak, yangi udumlar ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan puxta asoslangan bo‘lishiga qaramay, baribir, qabul qilinmasligi ham mumkin ekan. Aslida, asrlar davomida bo‘lsa-da, amalda qo‘llanib kelayotgan urf-odat, udum va an‘analarning yangilanishiga tabiiy jarayon sifatida qaralmog‘i lozim. To‘g‘ri, urf-odat xalqning ma‘naviy boyligi bo‘lib, ular uzoq yillar, ba‘zan asrlar mobaynida shakllanib, amal qilib keladi. Ularda xalq donoligi mujassamlashadi. Ahamiyatli tomoni shundaki, jamiyatdagi ilg‘or o‘zgarishlar xalqning o‘sha urf-odat, udum va an‘analarni mohirona takomillashtirishi asosida ro‘y beradi. Lekin takomillashtirish va yangi sharoitga moslashtirish izchil kechadigan tabiiy jarayon bo‘lganidan, uni inqilobiy tarzda dabdurustdan yangilik kiritish bilan aralashtirmaslik kerak⁷. O‘zbek xalqining urf-odatlari asrlar bo‘yi millatining tashkil topishida ishtirok etgan barcha qabilalar va elatlarning madaniy marosimlari va an‘analarining uyg‘unlashuvdagi murakkab jarayonlar oqibatida tarkib topgan⁸. O‘zbek xalqining an‘ana va urf-odatlari asrlar davomida shakllangan. Xalqimizning o‘ziga xos madaniyati va dastlabki sivilizatsiyalari, miloddan avvalgi 6-7-asrlarda shakllangan. Amudaryo, Sirdaryo va Zarafshon daryolari vodiylarida ko‘chmanchi qabilalar o‘troq turmush tarziga o‘tib, o‘zlarining ilk davlatlarini barpo etishgan. Ko‘chmanchilar o‘z ajdodlarining urf-odat va an‘analarini asosida alohida kichik kichik aholi punktlari va shaharlarini barpo etganlar. Xorazm, So‘g‘diyona, Baqtriya zaminining bir qismi – hozirgi O‘zbekiston hududi keyinchalik O‘zbekiston xalqlari madaniyatining asosiga aylangan madaniyatning shakllanishiga tayanch bo‘ldi.⁹ Urf-odatlar haqida gapirganda albatta tabiat bilan bog‘liq urf-odatlar haqida gapirmasdan bo‘lmaydi. Xalqning tabiat bilan bog‘liq urf-odat va marosimlari esa albatta ma‘lum fasllardagi tabiat xodisasi yoki shu faslning biror o‘ziga xos tomoni haqida bo‘ladi. Masalan qish faslida birinchi qor yoqqanda Qorxat deb atalgan a‘nanani o‘tkazishni misol keltirib o‘tish mumkin. Yer yuzining qor yog‘uvchi hamma

⁷ "Tafakkur" jurnali, 2019-yil 3-son. Mahmud Yo‘ldoshev. Urf-odatlar: .tanganing ikki tomoni .

⁸ Buxoro davlat universiteti Axborot texnologiyalar markazi © 2019 Powered by ATM«
Mintaqa biosferasiga bo‘lgan antropogen ta‘sir dinamikasi Milliy taraqqiyotning ma‘naviy-axloqiy negizlari»

⁹ Internet ma‘lumoti: <https://turi-uzbekistana.ru/> Узбекские обычаи, традиции и ритуалы



hududlarida dastlabki qor yoqqanida quvonch kutib olingan bilan "qor bo'ron" o'yinlari boshlangan. Bu o'yinlar xalqimizning taqvimiy marosimlari qatorida ham mavjud. "Qor xat" odati qadimda juda keng yoyilgan an'ana bo'lib, bugungi kunda ham davom etib kelmoqda. U odamlar tomonidan tomonidan belgilab qo'yilgan shartlarga ko'ra, "qor xat"ni o'zi uchun yaqin kishilardan, ya'ni do'stlari yoki qarindoshlaridan birortasiga yozadi va o'ziga bildirmay ularning qo'lga berishi yoki cho'ntagiga solib qo'yishi kerak. Xatni yozgan odam uni o'zi yoki boshqa birovdan yetkazishi mumkin, biroq xatni berganidan keyin borgan hovlining chegarasidan chiqib ketgungacha qo'lga tushmay, qochishi kerak. Agar u buni uddalay olmasa, kulgili vaziyat va ko'ngilsizliklarga duch kelishi mumkin. Agar qo'ga tushsa, qo'yilgan shartlarni uning o'zi bajarishga majbur bo'ladi. Agar xatni uy egasi unga o'ziga bildirmay berib ketsa, yoki hovlisa qo'yib ketgandan keyin bilsa u xolda unda yozilgan shartni bajarishga majbur bo'ladi. Qor xat yozishdan maqsad turli joylarda turlicha bo'lgan. Vodiyning Chust tumani va turli qishloqlarida "qor xat" olib keladigan odamning maqsadi nima ekanligini uy egasi sezib qolsa, avvaldan uning yo'lga poylash uchun odam qo'ygan va qorxat keltirgan odamni ortga qaytishda ushlab olib, qor bilan yaxshilab yuzlarini bezab, qiynashgan va uning o'ziga shart qo'ygan, ya'ni ziyofat berishga majbur qilganlar. Shu boisdan xatda ziyofatning qachon, qaerda, nechi kishiga berilish kerakligi alohida yozib qo'yilgan. Shuningdek, odatga ko'ra ziyofatga qanday taomlar va nozu ne'matlar tayyorlash sharti aytilib, unga xat muallifi bilan birga boruvchi mehmonlarning nomlari ham ma'lum qilingan. Bunday uslubdagi "qor xat"lar vodiyning deyarli barcha hududlarida yaqin vaqtlargacha o'tkazilib kelingan. Asosiysi, birinchi qor yoqqan kuni qilingan ziyofat tufayli ginalar, xafagarchiliklar unutilishi, unda suhbat, yalla, qah-qaha avjiga chiqishi lozim ekanligi ta'kidlangan. Farg'ona vodiysida olib borilgan dala tadqiqotlariga ko'ra, bizning davrimizda yozilgan "qor xat"larda ziyofat emas, balki biror bir buyum olib berish yoki biror ko'ngilochar sayilgohlarga olib borish kabi shartlar ko'rsatilmoqda. O'yin tarzida o'tkaziluvchi mazkur marosimdan ko'zlangan asosiy maqsad aslida kelgusi yil hosilining mo'l bo'lishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan qorning birinchi bor yog'ishini tantanali ravishda nishonlash, shuningdek, ziyofat uchun tuzalgan dasturxon aslida shukronalik tarzidagi pishirilgan qurbonlik, hadya timsolini bildirgan. Xalqimizda dehqonchilik bilan bog'liq bo'lgan yana bir marosim yomg'ir chaqirish marosimi. O'zbeklarning qadimdan asosiy xo'jalik mashg'uloti dehqonchilik bo'lgan bo'lib, mintaqada dehqonchilik sug'orma va tabiiy, ya'ni yomg'ir suvlari bilan sug'oriladigan lalmi(qayroqt) dehqonchilik qilingan. Lalmi dehqonchilik qilinadigan yerlarda bahorda yomg'ir yog'masdan qurg'oqchilik boshlansa yomg'ir chaqirish bilan bog'liq marosim o'tkazilgan. Bu marosim "Sust xotin", "Sut xotin", "Suv xotin", "Chala xotin" kabi nomlar bilan nomlangan. Yomg'ir chaqirish bilan bog'liq marosimlar, garchi turli nomlar bilan yuritilsada mohiyatan, bajargan vazifasiga ko'ra bir xildir. Suv bilan bog'liq urf-odat va marosimlar o'zining uzoq tarixiga ega bo'lib, zardushtiylik dinining muqaddas kitobi "Avesto"da yer, suv va hosildorlikning



xudosi deb "Anaxita" bilan bog'liq deb hisoblasalar ayrim mutaxassislar esa uni yomg'ir ilohi Tishtiriya bilan bog'lab talqin qiladilar. "Sust xotin" marosimi O'zbekistonning Jizzax, Qashqadaryo, Surxondaryo, Namangan viloyatlaridagi ayrim qishloqlarda ayollar, Sho'rchi, Koson tumanlarida va o'zbek laqaylarida erkaklar ishtirokida o'tkazilgan. Bunda belgilangan vaqtda o'n, o'n besh nafar ayollar maxsus yasalgan qo'g'irchoqqa keksa ayolning kiyimini kiydirishgan. Uni bir ayol ko'tarib olgan va qolganlar uning orqasidan ergashib, qishloqdagi uylarga birma bir kirib chiqishgan. Ular har har bir xonodonga kirganda "Sust xotin" qo'shig'ini aytishgan. Xonadon egasi esa mamnuyat bilan ularga atagan narsalarini hadya etishadi. Namangan viloyati Chust tumanida marosim uchun qulay bo'lgan haftaning chorshanba kuni o'tkazilgan va avvalo o'tganlar ruhiga bag'ishlab "is" chiqarilib, cho'zma, palov pishirilgan. Marosimda yosh bolalarning ko'proq bo'lishiga harakat qilingan, chunki ular gunohsiz bo'lib, qilgan duolari yaxshi ijobat bo'lishiga ishonilgan. Vodiyda toshbaqani teskari qilib qo'yilsa, yomg'ir yog'adi degan tasavvur ham bo'lgan.

Sust xotin, sulton xotin,

Ko'lankasi maydon xotin

Sust xotinga ne kerak,

Sharros-sharros yomg'ir kerak.

deb aytishib, qo'g'irchoqni ustidan suv sepishgan. Yomg'ir chaqirish bilan bog'liq marosimlar tabiat hodisalari bilan bog'liq ruhiy olam to'g'risidagi tasavvurlar natijasi bo'lib, hozirga qadar birmuncha o'zgargan shaklda, diniy qarashlar bilan o'zaro qorishgan holda an'anaviy urf-odatlar zahirida saqlanib qolgan. Shamolni to'xtatish bilan bog'liq marosim. O'zbeklarda surunkali qattiq shamol esgan vaqtda uni to'xtatishga qaratilgan maxsus marosim o'tkazilgan bo'lib, bu marosim "Choy momo" deyilgan. "Choy momo" marosimi Janubiy Qozog'iston-ning Turkiston va Sayram tumanlarida yashovchi o'zbeklar tomonidan o'tkazilgan. "Choy momo" "chal momo" so'zining fonetik o'zgargan shakli hisoblanadi. Qadimgi turkiylarda "chal" so'zi shamol ma'nosini ham anglatgan. Demak "chal momo" so'zi "shamol momo" degan ma'noni bildiradi. Yoz faslida boshqoqli ekinlar pishgan vaqtda kuchli shamol bo'lib, u surunkali davom etsa, ekinlarni shamoldan himoya qilish maqsadida ayollar ishtirokida kunduz kuni "Choy momo" marosimi o'tkazilgan. Marosim avvalida qishloq yoki mahalladagi yoshi keksa ayollar yuzlariga qorakuya surtishib, qo'llariga hasa olishib "Choy momo" qo'shig'ini aytishgan.

Choy, choy, choy moma.

Choy momasi o'libdi,

O'g'li yetim qolibdi.

Bosa-bosa beringlar,



Bosilib qolsin bu shamol.

deb aytishib qishloqni aylanib chiqishgan. Keksa yoshli momolarga boshlariga qizil sholcha yopgan beshta qizlar hamroh bo'lishadi. Ularning orqasidan yetti-sakkiz yoshli bola xurjun osilgan eshakni minib boradi. O'z navbatida mahallla ahli ularga turli tuman narsalarni (bug'doy, tuxum, non va pul) tuhfa qilishadi va yakunida qishloq aholisi belgilangan joyga to'planishib Shamol otaga bag'ishlab qurbonlik qilinadi. Turkistonda "Choy momo" marosimini ayollar emas, balki boshiga kuloh kiyib olgan yoki salla o'rab, yuziga qorakuya surtib olgan ikki erkak kishi tomonidan o'tkazilgan. Hozirda bu marosim xalq hayotida deyarli o'tkazilmaydi va faqat folklyorshunoslikka oid adabiyotlardagini saqlanib qolgan.¹⁰



¹⁰ www.ich.uz. "Ўзбекистон номоддий маданий мероси". 4-соҳа - Табиат ва коинот билан боғлиқ урф-одатлар. 2023